



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MILLIY QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI VA YOSHLAR TARBIIYASIDA TARIXIY OBIDALARNING O‘RNI**

**Qalandarov Ravshan Bektosh o‘g‘li**

Navoiy davlat universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarining tiklanish jarayoni hamda tarixiy obidalarning yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy merosni asrash siyosati, sovet davridagi munosabat va istiqloq davridagi ijobiy o‘zgarishlar qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy obidalar yoshlar ongida tarixiy xotira, milliy o‘zlik va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** milliy qadriyat, tarixiy obida, ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, tarixiy xotira, meros, mustaqillik.

## **ВОЗРОЖДЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ**

**Каландаров Равшан Бектош угли**

Навоийский государственный университет, магистрант

### **Аннотация**

В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируется процесс возрождения национальных ценностей в годы независимости Республики Узбекистан и роль исторических памятников в духовном воспитании молодежи. В ходе исследования проведен сравнительный анализ политики сохранения исторического наследия, отношения к ней в советскую эпоху и позитивных изменений в период независимости. Результаты показывают, что исторические памятники являются важным фактором формирования исторической памяти, национальной идентичности и патриотизма в сознании молодежи.

**Ключевые слова:** национальная ценность, исторический памятник, духовность, воспитание молодежи, историческая память, наследие, независимость.

## **REVIVAL OF NATIONAL VALUES IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND THE ROLE OF HISTORICAL MONUMENTS IN YOUTH EDUCATION**

**Qalandarov Ravshan Bektosh o‘g‘li**

Navoi State University, Master’s student

### **Abstract**

This article analyzes the process of the revival of national values during the years of independence of the Republic of Uzbekistan and the role of historical monuments in the spiritual education of youth from a scientific, theoretical and practical perspective. During the study, a comparative analysis was made of the policy of preserving historical heritage, attitudes during the Soviet era, and positive changes during the period of independence. The results show that historical monuments are an important factor in the formation of historical memory, national identity and patriotism in the minds of young people.

**Keywords:** national value, historical monument, spirituality, youth education, historical memory, heritage, independence.

O‘zbekiston hududi qadimdan insoniyat sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu zaminda shakllangan boy tarixiy-madaniy meros, me’moriy obidalar va ma’naviy qadriyatlar xalqimizning milliy o‘zligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mustaqillik yillarida ushbu qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayniqsa, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, ularni xalq va yoshlar uchun ochiq ma’naviy maskanga aylantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy o‘zlikni saqlash, tarixiy xotirani mustahkamlash dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy obidalar nafaqat tarixiy yodgorlik, balki kuchli tarbiyaviy vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarining qayta tiklanish jarayonini tahlil qilish hamda tarixiy obidalarning yoshlar tarbiyasidagi oʻrni ilmiy asoslashdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi.** Milliy qadriyatlar va tarixiy meros masalasi koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan. Xususan, milliy oʻzlikni shakllantirishda tarixiy xotiraning oʻrni, tarixiy obidalarning maʼnaviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi roli haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud.

Oʻzbekiston tarixshunosligida mustaqillik davri alohida bosqich sifatida eʼtirof etilib, bu davrda tarixiy haqiqatni tiklash, madaniy merosni asrash va rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda tarixiy obidalarini taʼlim jarayoniga integratsiya qilish orqali yoshlarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish samarali metod sifatida baholanadi.

Har bir davlatda xalqining oʻtmishi va ulugʻvor tarixini eslatib turuvchi tarixiy obidalar va yodgorliklar mavjud. Ushbu yodgorliklar orqali inson maʼnaviy ozuqa oladi, oʻz davlatining tarixidan faxrlanadi va gʻurur tuygʻusini his etadi. Dunyoda inson qoʻli bilan yaratilgan va necha ming yillardan beri saqlanib, oʻz jozibasini yoʻqotmay kelayotgan tarixiy obidalar koʻplab uchraydi. Ammo har birining alohida oʻrni, nufuzi va ahamiyati bor.

Tarixdan bizga maʼlumki, inson zoti sanʼatni qadrlagan va goʻzallikka intilib kelgan. Mana shu xislatlari orqali mohir qoʻllari bilan aqlga sigʻdirib boʻlmas darajadagi yangiliklarni yaratdi. Ular qatoridan fan yutuqlari, sanʼat sohasidagi ishlar va, albatta, meʼmorlik joy oladi. Inson bugungi kun bilangina yashab, moziyga nazar solmas ekan, oʻtmishi va anʼanalarini unutib qoʻyadi. Oʻz tarixini bilmagan xalqning esa kelajagi yoʻqdir.

Qadimgi Misr tarixiga nazar tashlasak, ular oʻz rivojlanishi davomida asriy anʼana va qadriyatlariga sodiq qolib, chetdan kirgan yangiliklarni oʻz anʼanalariga moslab, keraklilarinigina qabul qilganlar. Qurilish, fan, tabobat sohalarida ham qadriyatlariga sodiq qolganlar.

Vatanimiz hududida ham oʻtmishdan sado beruvchi koʻplab tarixiy-meʼmoriy obidalar bizgacha yetib kelgan. Ular mahobati, oʻziga xos meʼmoriy uslubi va did bilan ishlangan naqshlari orqali nafaqat ichki sayyohlarni, balki xorijiy sanʼatsevarlarni ham jalb etmoqda. Ushbu obidalarini ziyorat qilish yosh avlod qalbida ham gʻurur, ham iftixor tuygʻusini uygʻotadi. Vatanning oʻtmishidan faxrlangan inson esa oʻz oldiga ajdodlarga munosib avlod boʻlishni maqsad qilib oladi.

Qadimda yaratilgan har bir tarixiy obida bizni kechagi kun bilan chambarchas bogʻlab turadi va ana shu davr nafasini his etishimizga koʻmaklashadi. Inson maʼnaviyatiga taʼsir qiluvchi kuchlar qatorida tarixiy obidalar oʻrni alohida taʼkidlanayotgani bejiz emas. Bunday binolar inson qoʻl mehnati, nozik didi va betakror gʻoyalari mahsulidir. Inson omili esa bugungi kungacha jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholab kelinadi. Tarixda bunday loyihalarni qudratli davlatlargina mablagʻ bilan taʼminlay olgan, xolos.

Sohibqiron Amir Temur aytganlaridek: “Kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan binolarga boq”. Bu jumlaning oʻzi ham ulugʻ davlatchilik tariximizni bizga eslatib turadi. Tarixiy obidalar tashrif buyurgan inson oʻzini xuddi oʻtmishga, sehrli diyorga tushib qolgandek his qiladi va ana shu davr hayot tarzi koʻz oldida gavdalanadi. Tarixiy obidalar barpo etilishida ishlatilgan zarra qumdan tortib, mislsiz darajada betakror naqshlar va zarhal bezaklargacha boʻlgan barcha unsurlar goʻyo tilga kirib, ana shu davr haqida tashrif buyuruvchiga soʻzlab bergandek tuyuladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq tarixiy obidalariga boʻlgan eʼtiborning yuqori darajada boʻlishi ham ularning kelajak avlod uchun nechogʻlik ahamiyatli ekanligidan nishonadir. Yoshlarning ushbu obidalarning har bir qismini mukammal oʻrganishi va qalban his etishiga imkon yaratish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning talabalarining oʻqish yili davomida amaliyot soatlarini oshirishga doir qarorlari ijtimoiy-gumanitar fanlar boʻyicha tahsil olayotgan yoshlar uchun katta imkoniyatlar darvozasini ochib berdi [2]. Bunday obidalarini koʻrish orqali har kim maʼnaviy ozuqa oladi, shu bilan birga ruhan tetiklashadi.

Birgina Samarqand misolida olib qarajak, u yerning “Sayqali roʻyi zamin” deb atalishi bejiz emas. Bu hududda Sherdor, Tillakori, Ulugʻbek, Bibixonim madrasalari va koʻplab boshqa tarixiy binolar joylashgan. Ularning har biri takrorlanmas goʻzallikka ega. Shu xususiyatlar orqali Registon maydoni butun dunyo xalqlarini oʻziga jalb etib kelmoqda.

Ushbu maydonda joylashgan Tillakori madrasasi tarixiga nazar tashlasak, madrasa 1646–1660-yillar davomida qurib bitkazilgan boʻlib, qurilish ishlariga Samarqand hokimi Bahodir Yalangtoʻsh homiylik qilgan. Madrasa karvonsaroy asosi ustiga qurilgan. Dastlab “Yalangtoʻshbiy kichik madrasasi” deb nomlangan. Madrasa qurilishida yana boshqa bir maskan qurishga yetadigan miqdordagi mablagʻ ishlatilgani uchun “Tillakori” deb yuritila boshlangan. Madrasa aql bovar qilmas darajada serhashamligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Har bir peshtoq chuqur ravoqli qilib ishlangan va o'z navbatida, bu katta mehnat hamda mahorat talab etgan. Qurilishda eng mohir pardozchilar, me'morlar ishtirok etgan. Yana bir ajib tomoni, xonaqoh to'riga marmardan jimjimador mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. Bino ravoqida marmarga pardoz ishlari 1659–1660-yillarda tugatilgani o'yib yozilgan. Birgina pardoz ishining bunday uzoq vaqt talab qilganligi ham madrasa yuqori did bilan bezatilganining isbotidir.

Tashrif buyuruvchini birinchi navbatda zarhal va ko'zni qamashtiruvchi bezakli naqshlar o'ziga rom etadi. Koshinlarning rangi esa takrorlanmas darajada go'zaldir, tadqiqotlar davomida ham bunga o'xshash rang yarata olinmagan. Baland gumbazlaridagi koshinlari feruza rangda bo'lib, o'ziga xos ulug'vorlik kasb etgan. Har bir bezak takrorlanmasligi va uyg'unligi bilan inson ko'zini qamashtiradi.

Bezak mavzularining boyligi, naqshlarning haddan tashqari xilma-xilligi va bo'rtma yozuvlarning jozibasi boshqa hech bir binoda takrorlanmaydi. Mehrobdagi o'yma kosachalar zarhallanib, Qur'oni Karim oyatlaridan olingan yozuvlar orqali bo'rtma shaklda to'ldirilgan. Madrasaning eshiklaridan tortib ravoqlarigacha alohida did va e'tibor bilan bezatilgan. Har bir eshik murakkab naqsh va xattotlik uslubidagi yozuvlar bilan pardozlangan. Hali obida ichiga kirmasdan oq inson ko'zi zarhal bezaklardan qamasha boshlaydi. Hovli sahni 50x50 metr bo'lib, hammayoq noyob marmarlar bilan qoplangan. Hujralar tobadoniga panjaralar ishlangan. Har bir hujra yoz kunlari salqin, qishda esa iliq bo'lgan. Madrasani ko'rgan insonning me'mor mahoratiga tan bermasdan iloji yo'q.

Yurtimizdagi ertaknamo shahar hisoblanmish Ko'hna Xivada ham o'tmish ulug'vorligidan sado beruvchi ko'plab obidalar mavjud. Ulardan biri Kalta Minoridir. Minora yurtimizdagi barcha binolardan sir-sinoati, jozibasi, asl holda saqlanganligi va hashamdorligi bilan ajralib turadi. Minora 1853-yildan bunyod etila boshlagan va oxiriga yetkazilmagan. Shunday bo'lsa ham, hanzuz tarixnavislarni jalb etmoqda.

Tashrif buyuruvchini lol qoldiruvchi jihatlardan biri poydevorning 15 metr chuqurlikda joylashganligidir. Minora balandligi 29 metr. Agarda oxirigacha qurilganda, 100 metrni tashkil etgan bo'lardi. Minoraga quyosh nurlari to'liq tushadi. Shunga qaramasdan, birorta bezakning tovlanish xususiyati yo'qolmagan. Quyosh tik chiqqan paytda naqshlar nuri ko'zni qamashtiradi. Bino mustahkam bo'lishi uchun pastdan yuqoriga qarab torayib borgan. Har bir qarich joy takrorlanmas, nafis geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Nomlanishi esa uning konussimon ko'rinishiga qarab belgilangan. Inson ko'ziga juda ham bahaybat va salobatli bo'lib ko'rinadi. Minoraga yog'och zinalar orqali ikkinchi qavatdan kiriladi. Bezash jarayonida ishlatilgan ranglar tarkibi hanzuz sirligicha qolmoqda. Zukko pardozchilarning hech bir ishi qayta takrorlanmagan. Hududda shunday muhit yaratilganki, u yerga kirgach, barcha narsani unutib, o'tmish zarvaraqlari uzra xayol sura boshlaysiz.

Insonni lol qoldiruvchi jihatlardan yana biri ayrim binolarda butun boshli bir xona devor ichiga o'yib ishlangan tokchalarga qo'yilgan sham orqali isitilganidir. Hatto Xorazmdagi Juma masjidida imomning so'zlari devor teshiklari orqali butun hududga tiniq holda yetib borgan. Hududlarda yerdan zax ko'tarilmasligi uchun inshoot hovlisiga tut daraxti ekilgan. Bularning bari o'sha davr me'morlarining zakovati, uzoqni ko'ra olishi va o'z kasbining fidoiysi ekanligini isbotlaydi. Turli vositalarning sinoati hanzuz topilmagani esa har bir bino qurilishidagi ishlar qayta takrorlanmaganligi va kasb siridan dalolat beradi.

Har bir hududda o'zgacha me'morchilik uslubi bor. Vodiy ham bundan mustasno emas. Har bir tarixiy obida singari Qo'qon shahrining ramzi hisoblangan Xudoyorxon o'rdasi ham maxsus jihatlari bilan boshqalaridan keskin farq qiladi. Inshoot XIX asrning ikkinchi yarmida Xudoyorxon farmoniga asosan me'mor Mir Ubaydulla rahbarligida bunyod etilgan. Koshinlarni rishtonlik mohir usta Abdulla mahorat bilan ishlagan. Bino tepalikda baland g'ishtin poydevor bilan qurilgan. O'ziga xos tomonlaridan biri u yerda 100 ga yaqin katta-kichik xonalar borligidadir. Markazda xon qarorgohi, salomxona joylashgan. Ikkinchi hovlida haram bo'lib, har birida nozik did bilan bezatilgan o'tish ayvonlari bo'lgan. Quyma ganchdan ko'p foydalanilgan. O'rda devorlari pishiq g'ishtdan ko'tarilgan bo'lib, ko'plab ravoqlar qoldirilgan. Obida ustalik bilan handasiy naqshlar va parchinlar bilan pardozlangan. Har bir xona o'yma ganchkori qilinib, shifrlarga nafis va rangdor gullar ishlangan. Devorlar noyob va takrorlanmas naqshlar bilan ziynatlangan. Ayvonlar sahniga qimmatbaho marmarlar mohirlik bilan yotqizilgan. Tashrif buyurgan inson dabdaba va shohonalik og'ushida o'zini bir lahza xon deb his etadi.

Vatanimiz hududida bularga o'xshash yuzlab obidalar mavjud. Agarda yoshlar bu qadamjolarga olib borilsa, ular naqadar buyuk yurt farzandlari va dono insonlarning avlodlari ekanligini yana bir bor anglab yetadi. Bunday obidalar nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi davr uchun ham xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ularning bugungi kundagi o'rni yurtimizga sayyohlarni jalb etayotgani va butun dunyoga O'zbekiston nomini tanitayotgani bilan baholanadi.

Qadimgi Sharq falsafasi, urf-odati va turmush tarzida tarixiy-madaniy merosni e'zozlash katta o'rin tutadi. Ulug' alloma Konfutsiy (er.avv. 531–479-yillar) fikricha: “Urf-odatlardan foydalanish kishilarni murosaga keltiradi. Qadimgi hukmdorlarning odatlari go'zal edi. Ular o'zlarining katta va kichik ishlarini urf-odatlarga muvofiq amalga oshirganlar”. Mutafakkir “urf-odatlar, ota-ona, ular merosi insonparvarlikka o'rgatadi, insonparvar bo'lmay boshqaruv bilan shug'ullanib bo'lmaydi”, degan fikrni ilgari suradi.

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli ilk tarixiy-madaniy merosga oid ilmiy asarida shunday yozadi: “Mendan so'ralgan savollarga olib keladigan sabablardan yaqinrog'i o'tmish millatlarning va ilgari voqealarni bilmokdir. Chunki xabarlarining aksari o'tmish millatlarning ahvollari, rasm va shariatlarining bayonidan iborat bo'lib, uni bilmak aqliy narsaga suyanish, seziladigan narsalarga solishtirish bilangina bo'lmay, balki kitob ahllarini va turli ra'y egalari asoslanishni talab etadi. Tarix isbotida ularning so'z va ra'ylarini bir-biriga solishtirish kerak bo'ladi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning sa'y-harakati bilan etnoan'alarimizdan unumli foydalanish va ularni jahonga yoyish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida” (2019-yil 26-fevral), “Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazishga tayyorgarlik chora-tadbirlari to'g'risida” (2019-yil 26-fevral), “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida” (2019-yil 3-oktyabr), “O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” (2019-yil 18-may), “Xalqaro baxshichilik festivalini o'tkazish to'g'risida” (2018-yil 1-noyabr) kabi farmon va qarorlarda tarixiy-madaniy merosga mutlaqo yangicha e'tibor yaqqol ko'zga tashlanadi [1]. Ularda tarixiy-madaniy meros “noyob va buyuk san'at”, “tengsiz ma'naviy boylik” ekani ta'kidlanadi.

“Mana shunday kasb va buyuk san'at, — deydi afsus bilan Sh.M. Mirziyoyev, — bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko'p joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani, bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Shu sababli tengsiz madaniy boyligimiz bo'lmish mumtoz baxshilik san'atini, xalq ijodining nodir namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, shuningdek, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining burchidir”.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasiga ham “Davlat va jamiyat milliy qadriyatlarni himoya qilish, o'zbek xalqi ma'naviy va madaniy merosining uzluksizligini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”, deyilgan 49-moddaning kiritilishi madaniy merosimizga befarq bo'lmagan barchani quvontirdi.

So'nggi yillarda ma'naviy va madaniy boylıklarimizni asrab-avaylashga qaratilgan ishlar faol olib borilmoqda. Masalan, o'tgan yillar davomida Respublikamizda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida” hamda “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi qonunlar qabul qilindi. Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya doirasida xalqaro shartnoma imzolandi. Ushbu konvensiya doirasida Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari UNESCOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritildi.

Turizm va madaniy meros vazirligi hamda uning huzuridagi Madaniy meros agentligi tashabbusi bilan 5–6-oktyabr kunlari Samarqandda ilk bor O'zbekistonda restavratsiya san'atini qayta tiklash, madaniy meros va madaniy yodgorliklarni asrashga doir dolzarb masalalar muhokama qilindi. Tadbirda o'zbek xalqining boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob va nodir madaniy merosni asrab-avaylashni kuchaytirish haqida so'z yuritildi [3].

“Tarixiy obidalar faqatgina turizm obyekti emas, birinchi navbatda, xalqimizning boyligidir, ularda millatning tarixi, madaniyati aks etadi”, — degan edi. Haqiqatan ham, barcha tarixiy obidalar, yodgorliklar xalqimizning milliy boyligidir. Buyuk sohibqiron Amir Temur ham: “Bizning kimligimizni bilmokchi bo'lsang, qurgan imoratlarimizga boq”, — deb bejiz aytmagan.

Shuning uchun tarixiy, ilmiy, badiiy va o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan imoratlar, binolar hamda diqqatga sazovor joylarni asrab-avaylash har bir imonli va vijdonli kishining burchidir. Lekin so'nggi paytlarda madaniy yodgorliklardan turli maqsadlarda foydalanish holatlari avj olmoqda. Masalan, Samarqanddagi tarixiy bino qoldiqlarini buzib tashlash, qo'pol texnika vositalarini ishlatish, tarixiy obidalardan turli maqsadlarda foydalanish kabi holatlar uchramoqda.

Xorijiy sayyohlar bizning yurtimizga tarixiy yodgorliklarni, ma'naviy-madaniy obyektlarni, merosimizni, o'ziga xos milliy binolarimizni ko'rish uchun sayohatga keladi. Ularga qutidek bir xil

imoratlarni ko'rishning ahamiyati yo'q. Shuning uchun milliy boyligimiz bo'lgan ma'naviy-madaniy merosimizni, milliy xususiyatlarni saqlagan obida va inshootlarni asrab-avaylashimiz, kelajak avlodga ham bus-butun qoldirishimiz har bir ziyoli odamning oldidagi burch va majburiyatdir. Qachonki inson o'zligini, azaliy qadriyat va an'alarini unutsa yoki ularga biroz bo'lsa ham befarqlik bilan qarasa, ma'naviy tahdidlarga duch keladi va unga yengiladi. Shu sababdan ham yurtimizdagi bu kabi tarixiy obidalar doimo yosh avlodga biz kim ekanligimiz, kimlarning avlodi ekanligimiz va kelajakda nimalarga erisha olishimiz mumkinligini eslatib turuvchi qo'ng'iroq singari bong urib turaveradi. Obidalar qurilishida tarbiyaviy jihatlar ham alohida e'tiborga olingan bo'lib, bunga yorqin misol tariqasida obidalardagi har bir hujraning eshiklari inson bo'yidan past qilib yasalganligini keltirish mumkin. Bu esa xonaga kirayotganda u yerda o'tirgan shaxsga nisbatan egilib hurmat bajo keltirishga inson beixtiyor majbur bo'lganini anglatadi [5]. Bu ham sharq ma'naviy tarbiyasining o'ziga xos tomonlaridan biridir. Obidalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan inson esa ko'plab bunday ajoyib va tarbiyaviy holatlarga duch keladi. Shu bois mana shunday ishlarni izchil amalga oshirish uchun yoshlarni tarixiy obidalar bilan yaqindan tanishtirishimiz va ularni asrab-avaylashga o'rgatishimiz lozim. Ular bunday obidalar tarixini ming marta o'qib o'rgangandan ko'ra, bir marta borib ko'rganlari maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning o'z yo'llaridan odimlab borishida bu kabi inson ruhiyatiga ma'naviy ozuqa beruvchi obidalarning o'rni beqiyosdir va buni hech narsa bilan baholab bo'lmaydi. Biz ularni asrashimiz, dovrug'ini yetti iqlimga yoyishda ko'maklashishimiz va kelajak avlodlarga asl holda yetkazishimiz zarur. Zero, bu yurtning har bir farzandi ushbu obidalar orqali o'tmish ulug'vorligidan ozuqa olishga haqlidir.

**Metodologiya.** Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida amalga oshirildi:

1. Tarixiy-tahliliy metod — sovet davri va mustaqillik davridagi tarixiy obidalarga munosabatni o'rganish;
2. Qiyosiy metod — ikki davr o'rtasidagi farqlarni aniqlash;
3. Kuzatuv metodi — tarixiy obidalar va ziyorat maskanlarining bugungi holatini tahlil qilish;
4. Pedagogik tahlil — tarixiy obidalar orqali tarbiya berish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi tarixiy markazlar tanlab olindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tarixiy obidalar yoshlar tarbiyasida muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Bugungi ta'lim tizimida tarix fanini o'qitishda faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, amaliy yondashuv, ya'ni tarixiy obidalar asosida o'qitish samaraliroq natija beradi. Tarixiy obidalarni o'rganish orqali yoshlar tarixni "his qiladi", voqealarni chuqurroq anglaydi, milliy qadriyatlarga hurmat shakllanadi. Shuningdek, tarixiy obidalar global madaniy merosning bir qismi sifatida yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga ham yo'naltiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy qadriyatlarining tiklanishi tarixiy obidalar orqali yanada mustahkamlandi. Tarixiy obidalar yoshlar ma'naviy tarbiyasining muhim omili, milliy o'zlikni shakllantiruvchi vosita va tarixiy xotirani saqlovchi manba hisoblanadi.

Shu sababli quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Tarixiy obidalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish;
2. Yoshlar uchun tarixiy sayohat dasturlarini rivojlantirish;
3. Tarixiy merosni asrash bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi" // Xalq so'zi. — 2020-yil 7-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. — 2001. — 9–10-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — 21.04.2021-yil. — 03/21/683/0375-son; 18.05.2022-yil.
3. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar: Tarixiy, ma'naviy-madaniy va tabiiy meros davlat muhofazasidir. — URL: Daryo.uz
4. Ma'naviy meros. — URL: Oyina.uz forum
5. Мудрецы Поднебесной. — Симферополь: Реноме, 1998.
6. Norqulov D.T. Tarixiy-madaniy meros ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida.
7. O'zbek progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga oid materiallar. — Toshkent: Fan, 1959.
8. Sara Nashadi. Ba'zi davlatlarda madaniy meros yo'qolib bormoqda. — URL: Aniq.uz
9. Tarixiy obidalar faqatgina turizm ob'yekti emas. — URL: Xabar.uz
10. Tarixiy madaniy obidalar. — URL: Oqdaryo.uz